Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi geologiya sohasidagi hamkorlik poydevori

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi hamda Qirg‘iziston Respublikasi Milliy akademiyasi M.M.Adashev nomidagi Geologiya instituti o’rtasida o’zaro hamkorlik memorandum imzolandi. Unga ko’ra, tomonlar foydali qazilmalarni qidirish va o‘rganish, qayta tiklanadigan energiya, energiya tejamkorlik va ekologiya sohalarida innovasion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilishda hamkorlik qilishga tayyor ekanliklari ta'kidlangan. Tadqiqot va ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot va o‘quv-uslubiy faoliyat sohasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ham ko‘zda tutilgan.

Ushbu hamkorlik geologiya sohasini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.